

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH BILAN  
BOG‘LIQ TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab respublika oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etilsin.

2. Oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi:

tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etilgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejasi va fan dasturlari takomillashtirilishini ta‘minlasin;

Respublika oliy ta‘lim kengashi bilan birgalikda ikki hafta muddatda oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar namunalarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

4. Oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni yuqori malakaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bilan ta‘minlash maqsadida birlamchi xarajatlarni amalga oshirgandan so‘ng bo‘shab qolayotgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushgan budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda Respublika oliy ta‘lim kengashining quyidagi tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) oliy ta‘lim muassasasi kengashi qarori asosida:

oliy ta‘lim muassasasida 3 yil ishlab berishni nazarda tutuvchi shartnomani rasmiylashtirgan holda professor-o‘qituvchilarning nufuzli xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlari va ilmiy muassasalarda stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi;

oliy ta‘lim muassasasida 5 yil ishlab berishni nazarda tutuvchi shartnomani rasmiylashtirgan holda o‘qituvchilarni nufuzli xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlari va ilmiy muassasalarning doktorantura dasturlari asosida o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshirish;

b) oliy ta‘lim muassasasi huzurida faoliyat yuritayotgan davlat ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qurilish, joriy va kapital ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari uchun zarur mablag‘lar ajratish.

5. Belgilab qo‘yilsinki, oliy ta‘lim muassasalarining akademik mustaqilligini yanada kengaytirish maqsadida 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

oliy ta‘lim muassasalari huzuridagi texnikumlarda o‘quv mashg‘ulotlarini olib borayotgan oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining mehnatiga soatbay haq to‘lash oliy ta‘lim muassasalari talabalariga dars o‘tganligi uchun mehnatga soatbay haq to‘lash miqdorlarida amalga oshiriladi;

ta‘lim jarayonini tashkil etishda haftalik o‘quv kunlari oliy ta‘lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilanadi;

oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari tegishli oliy ta‘lim muassasasi rektori (filial direktori)ning buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

6. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida” 2019-yil 3-dekabrda 967-son qaroriga 2-ilovaga muvofiq qo‘shimchalar kiritilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.A. Musayev hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 31-dekabr,  
824-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qaroriga  
1-ILOVA

## **Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi oliy ta’lim muassasalari, oliy harbiy ta’lim muassasalariga, O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z faoliyatini yuritayotgan, nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish ushbu Nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

3. O‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga oid ma’lumotlar, jumladan, ta’lim dasturi, fanlar katalogi, akademik mobillikni ta’minlash, kreditlarni tan olish va ko‘chirib o‘tkazishga taalluqli hujjatlar hamda diplomga ilovaning shakllari, shuningdek, akademik mobillik davrida talabaniing bilim darajasini aniqlash bo‘yicha ko‘rsatkichlar va boshqa zarur hujjatlar namunalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Respublika oliy ta’lim kengashi bilan birgalikda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

#### **2-bob. Asosiy tushunchalar**

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**GPA (Grade Point Average)** — ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{GPA} = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n}, \quad \text{bunda:}$$

**K** — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

**U** — har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho;

**akademik mobillik** — oliy ta’lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta’lim muassasasiga o‘qish maqsadida borishi;

**mobillik dasturi** — ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

**kredit** — ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

**oliy ta'lim muassasasi** — belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa;

**kreditlarni berish** — malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

**kreditlarni ko'chirish** — talabalarning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;

**kredit to'plash** — ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

**talabning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi** — talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

**ta'lim dasturi** — bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatkichlar majmui;

**ta'lim dasturi katalogi** — oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

**ta'lim natijalari** — talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

**o'qish yuklamasi** — talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

**ro'yxatga olish xizmati** — ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

**ta'lim elementlari** — ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

**transkript** — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

### 3-bob. Ta'lim dasturi tuzilmasi

5. O'quv yili uchun ta'lim dasturi tuzilmasi bir yoki bir nechta modullardan iborat ta'lim elementlaridan tashkil topgan bo'lib, oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta'lim dasturi auditoriya mashg'ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta'lim elementlaridan iborat bo'lishi mumkin.

6. Ta'lim dasturi tuzilmasi uning har bir ta'lim elementiga mos keladigan ta'lim olish natijalari (kamida 6 ta ko'rsatkich)ni ko'rsatgan holda bir akademik o'quv yiliga 60 kredit mos

kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta'lim dasturida kreditlarning miqdori o'quv yuklamasi asosida ko'rsatiladi.

7. Talabalarining ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo'lishi uchun talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida yoki kreditlar oralig'ida ifodalanishi mumkin.

8. Ta'lim dasturining talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun oliy ta'lim muassasasining tegishli bo'linmalari va xodimlari, shu jumladan, ta'limning kredit tizimini boshqarishga mas'ul boshqarma yoki bo'limi, guruh murabbiyi tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida talabalarga ta'lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribani tan olish imkoniyatlari tushuntiriladi.

9. Oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi katalogi va o'qitish sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar hamda dolzarb axborotni oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda o'quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin joylashtirishi va e'lon qilib borishi shart.

10. Ta'lim dasturi va uning elementlarini amalga oshirishga mas'ul o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan o'qitish natijalari bilan dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashlari lozim. O'qitish natijalari, dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi ushbu konstruktiv bog'liqlik ta'lim dasturlariga qo'yiladigan muhim talab hisoblanadi.

Ta'lim elementlarining amalga oshirilishiga mas'ul professor-o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan natijalar bilan ta'lim berish hamda baholash jarayonlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashi lozim.

#### **4-bob. O'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta'lim sifatini ta'minlash**

11. O'quv jarayoni o'quv va nazorat tadbirlari majmuini o'z ichiga oladi. O'quv tadbirlarida barcha turdagi auditoriya mashg'ulotlari, amaliyot va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi. Nazorat tadbirlari ta'lim oluvchilarning o'quv rejasidagi tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi.

12. O'quv jarayoni talabalar, ish beruvchilar, o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasida ochiq muloqot shaklida talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim standartlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda ish beruvchilar va talabalarining talab va istaklari muhokama qilinadi. Barcha manfaatdor tomonlar ta'lim dasturining yaratilishi va o'zlashtirilishi bo'yicha o'tkaziladigan muhokamaga jalb etilishi mumkin. Bunday bahslarda talabalar vakillari ovoz berish huquqi orqali ishtirok etishlari mumkin.

13. O'quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

namunaviy o'quv rejasi va fanlar katalogini ilg'or xorijiy ta'lim tajribasi asosida respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar iste'molchilari talablari va milliy qadriyatlarni e'tiborga olgan holda ishlab chiqish hamda qo'shimcha ravishda tanlov fanlar katalogini shakllantirish, mahalliy va xorijiy yangi avlod adabiyotlariga tayangan holda fanlar katalogi bo'yicha namunaviy fan dasturlarini ishlab chiqish;

fanlarning ishchi dasturini (sillabusni) ishlab chiqish;

o'quv rejasi va tanlov fanlari ro'yxatiga mos ravishda guruh murabbiyi yordamida o'quv-metodik bo'lim (boshqarma) va fakultet dekani nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish;

ishchi o'quv rejalarini tuzish;

o'quv jarayoni jadvalini tuzish;

akademik guruhlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzish.

14. Semestr davomida talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdori o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Majburiy fanlar tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Tanlov fanlari tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi. Talabalar shaxsiy ta'lim trayektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

15. O'quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo'lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro'yxatdan o'tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratiladi. O'quv yili davomiyligi o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq oliy ta'lim muassasasi kengashining qarori bilan o'zgacha tartibda belgilanishi mumkin.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25 — 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada — 30% — 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Talaba o'zining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

Talaba bakalavriatda o'qish muddati kamida 3 yil bo'lganda 180 kredit, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lganda 240 kredit to'plashi zarur. Magistraturada o'qish muddati kamida 1 yil bo'lganda 60 kredit, o'qish muddati kamida 2 yil bo'lganda 120 kredit to'plashi talab etiladi.

16. O'quv jarayonining monitoringi ta'lim olishning belgilangan natijalariga erishish, nominal mehnat hajmi hamda ularning haqqoniyligi va mosligini baholash maqsadida o'tkaziladi.

17. Ta'lim sifati samaradorligini ta'minlash oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ta'lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga moslikni ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim sifati oshirish va professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida oliy ta'lim muassasasi kengashi qaroriga asosan talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Bunda talabalar ta'limni boshqarish axborot tizimi portali orqali o'quv semestri boshida 1 hafta muddat davomida o'zi tanlagan professor-o'qituvchining mashg'ulotida qatnashish uchun onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi.

18. Akademik qarzdor talabalarining tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestr oliy ta'lim muassasasi tomonidan odatda ta'til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi.

Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar bo'yicha belgilanadi.

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:

talaba yozgi semestr boshlanguniga qadar oliy ta'lim muassasasi o'quv-metodik bo'limi (boshqarmasi)ga o'zining yozgi semestrda o'qishi istagini bildiradi;

oliy ta'lim muassasasi ushbu talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to'lov pulini to'laganidan so'ng darslarga kiritiladi;

yoziq semestr amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimni shaffof baholash tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi.

Yozgi semestrga jalb qilingan professor-o'qituvchilarga soatbay asosida ish haqi to'lanadi.

### **5-bob. Akademik mobillik va kreditlarni tan olish**

19. Akademik mobillikni ta'minlash va talabaning kreditlari oliy ta'lim muassasasi tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

fanlar katalogi;

belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va oliy ta'lim muassasasiga kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazish uchun asos hisoblanadi.



20. Talaba tomonidan oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha to'plangan kreditlar miqdori boshqa oliy ta'lim muassasasida belgilangan ta'lim olish natijalariga muvofiq o'zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

21. Talaba jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasiga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi. Jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan talabaga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi.

22. Talabaning akademik mobillik davrida o'zlashtirilishi belgilangan ta'lim elementlarini jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasining roziligisiz va u bilan kelishmasdan o'zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor oliy ta'lim muassasalari, markazlar va tashkilotlarning ta'lim dasturlarida belgilangan ta'lim olish natijalari jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to'ldirishi lozim. Mobillik vaqtida akademik yil ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va ushbu Nizomga asosan kreditlar tan olinishi belgilanadi.

23. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida talaba tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv elementlarining to'plami va ular oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta'lim to'g'risidagi kelishuvda aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida o'zlashtiriladigan kreditlar miqdori xorijda o'qish davriga (3 — 6 oy yoki 1 — 3 yil) mutanosib bo'lishi kerak. Jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan mobillik davrida talabaning o'zlashtirgan (to'liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi. Talaba jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasiga qaytib kelgach, mobillik davrida to'plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o'tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

24. Oliy ta'lim muassasasi akademik mobillik dasturi bo'yicha rejalashtirilgan ta'lim elementlarini o'zlashtirish uchun talabani belgilangan shakl asosida ro'yxatdan o'tkazadi va mobillik davrida ushbu elementlarni o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanishi majburiyatini oladi.

25. Hamkor universitetlar, markazlar va tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta'lim to'g'risidagi kelishuvlarni tuzish zarur hisoblanmaydi.

26. Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar oliy ta'lim muassasalarining baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali asosida qabul qilinadi.

27. Stajirovkani o'tash bo'yicha kelishuv talaba, oliy ta'lim muassasasi va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama imzolanadi.

28. Stajirovka davomida talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta'minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi muassasa tomonidan stajirovkani o'taganlik to'g'risida sertifikat beriladi.

### **6-bob. Baholash, baholarni konvertatsiya qilish**

29. Talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

30. Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

31. Baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og'zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar kabi turlarni o'z ichiga qamrab oladi. Baholash mezoni ta'lim olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart.

32. Kreditlarni ko'chirish oliy ta'lim muassasasida baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvalini boshqa oliy ta'lim muassasasida tuzilgan shunga o'xshash jadval bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

### **7-bob. Kredit-modul tizimida ro'yxatga olish xizmatini tashkil etish**

33. Ro'yxatga olish xizmatlari ta'lim va talabalar bilimni baholash jarayonlarini alohida yuritish, talabalar haqidagi akademik ma'lumotlarni elektron tarzda avtomatik boshqarish hamda yakuniy nazoratlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

34. Ro'yxatga olish xizmati talabaga tanlagan mutaxassisligi bo'yicha yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga erishishda yordam berishga qaratilgan bo'lib, quyidagi funksiyalarni qamrab oladi:

o'quv jarayoni jadvalini tuzish va u o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;  
talabalarning fanlarga ro'yxatdan o'tishini nazorat qilish;  
akademik guruhlarni shakllantirish;  
oraliq, yakuniy baholashlar va yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazilishini nazorat qilish;  
ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish;  
ta'lim olayotgan talabalarning ma'lumotlarini arxivga qadar saqlash;  
transkript formalarini shakllantirish va talabalarning ma'lumotlarini kiritish;  
talabalar kontingenti bo'yicha statistikani yuritish.

35. Ro'yxatga olish xizmatlari o'quv-metodik bo'lim (boshqarma) tarkibida olib boriladi. Oliy ta'lim muassasalarida budget mablag'lari doirasida yoki ularning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan ta'limning kredit tizimini boshqarish bo'limi tashkil etilishi mumkin.

36. Ro'yxatga olish xizmati belgilangan jadvalga muvofiq talabalarni fanlarga ro'yxatdan o'tkazadi va talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantiradi. Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi ular tomonidan mustaqil ravishda guruh murabbiyi yordamida namunaviy o'quv rejasi va tanlov fanlari katalogi asosida umumiy o'qish davri uchun tuziladi. Shaxsiy ta'lim trayektoriyasiga har o'quv yilidan oldin o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

37. Talabalarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi asosida ro'yxatga olish xizmati akademik guruhlarni shakllantiradi va biron-bir fanga yozilish yetarli bo'lmagan taqdirda, shaxsiy ta'lim trayektoriyasini o'zgartirish zarurligi to'g'risida talabalarga xabar beradi. Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi shakllantirib bo'lingandan so'ng ro'yxatga olish xizmati dars jadvalini tuzish uchun oliy ta'lim muassasasi o'quv-metodik bo'limi (boshqarmasi)ga akademik guruhlar to'g'risida ma'lumot beradi.

38. Ro'yxatga olish xizmati har bir talabani ro'yxatdan o'tkazish sanasi va vaqtini belgilaydi (odatda, talaba tomonidan yetarli GPA ko'rsatkichlarini to'plaganligi va kontrakt to'lovlari amalga oshirilganligiga qarab). Birinchi kurs talabalarini ro'yxatdan o'tkazish ular bilan akademik va kasbga yo'naltirish tadbirlari amalga oshirilganidan keyin boshlanadi.

39. Talabalar tanlagan fanlarini har semestrning dastlabki birinchi haftasi ichida o'zgartirishi mumkin.

40. Birinchi kurs talabalarini ro'yxatga olish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

guruh murabbiyi ro'yxatga olish xizmatidan birlashtirilgan guruh talabalarining login va parollarini oladi, talabaga ta'lim jarayonini tushuntiradi, ta'lim dasturi bilan tanishtiradi, login va parol beradi hamda talaba portalidan foydalanishni o'rgatadi;

talaba professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan fanlar bo'yicha tanishtiruv taqdimotlariga qatnashadi, majburiy va tanlov fanlari bilan tanishadi va fanlarga ta'limni boshqarish tizimidagi talaba portalini orqali ro'yxatdan o'tadi;

talaba ta'limni boshqarish tizimidagi portalini orqali dars jadvalini aniqlaydi va darslarga qatnashadi.

## **8-bob. Talabalarni o'qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga o'tkazish mexanizmlari**

41. Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalar ta'vil vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

42. Ta'lim oluvchini kursdan kursga o'tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. OTM talabalarni kursdan kursga o'tkazishda GPA ko'rsatkichini mustaqil belgilash huquqiga ega. Bunda GPA ko'rsatkichi 2,4 — 3,0 oralig'ida bo'lishi talab etiladi. GPA o'tish ballini to'play olmagan talaba qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi bor ta'lim oluvchilar o'qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo'lgan fanlarni o'zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag'larini to'laydi. Shartnoma asosida bir kursda qayta o'qish soni chegaralanmaydi. Jami ta'lim olish muddati bakalavriat uchun 1 kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 8 yilgacha, magistratura uchun 1 kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 4 yilgacha deb belgilanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

43. Ta'lim oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari asosida o'qishni qayta tiklash va ko'chirish huquqiga ega. Ta'lim oluvchi tomonidan chetlashtirilgunga qadar o'zlashtirgan kreditlar miqdori oliy ta'lim muassasasi tomonidan to'liq hajmda hisobga olinadi.

*(43-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*

### **9-bob. Yakunlovchi qoidalar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

44. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim olishning to'lov qiymati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

*(44-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*

45. Fanlar bo'yicha qayta ta'lim olish uchun to'lov qiymati oliy ta'lim muassasasi tomonidan butun o'quv yilining kontrakt summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qayta ta'lim olish uchun to'lov mexanizmi oliy ta'lim muassasasi tomonidan bir kredit qiymatini hisoblash asosida belgilanadi. Bir kredit qiymati o'quv yili davomidagi ta'lim olish uchun to'lanadigan bazaviy to'lov-kontrakt miqdorini rejalashtirilgan kreditlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

46. Talaba oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda, unga akademik darajasini tasdiqlaydigan diplom beriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish to'g'risidagi **nizomga ILOVA**

### **Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish**

#### **SXEMASI**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Ijro uchun mas'ullar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>
1-bosqich	Ta'lim dasturi doirasida o'quv jarayonini tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirish: 1. O'quv rejasi va fan dasturlarini jahon standartlariga moslashtirish va tasdiqlash; 2. Xar bir fanga kreditlarni taqsimlash; 3. Fanlar katalogini shakllantirish va e'lon qilish.	Oliy ta'lim muassasasi	O'quv yili boshlangunga qadar
2-bosqich			



	Ta'limning kredit tizimi bo'yicha talabalarni (bakalavr va magistraturaga) belgilangan tartibda 1 kursga qabul qilish.	Oliy ta'lim muassasasi	O'quv yili boshlangunga qadar
3-bosqich	Talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini berish uchun Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini belgilash	Oliy ta'lim muassasasi	2020/2021 o'quv yilidan boshlab xar bir o'quv yili boshlangunga qadar
4-bosqich	Mobillikni tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirish: 1. Professor-o'qituvchilar tarkibining mobilligi bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan kelishuvlar tuzish; 2. Magistratura talabalarining ta'lim trayektoriyasida mobillik oynasini tashkil etish; 3. Bakalavriyat talabalarining mobillik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.	Oliy ta'lim muassasasi, tegishli vazirliklar va idoralar	2020/2021 o'quv yilidan boshlab doimo
5-bosqich	Ta'lim sifatini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish: 1. Ta'limning kredit-modul tizimini akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha vakolatli tashkilotlar bilan bitim tuzish; 2. Ta'limning kredit tizimlarini akkreditatsiyadan o'tkazish.	Oliy ta'lim muassasasi, tegishli vazirliklar va idoralar	2021/2022 o'quv yilidan boshlab doimo
6-bosqich	Ta'lim berish natijasini tasdiqlash maqsadida xalqaro tan olinadigan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom berish.	Oliy ta'lim muassasasi	2022-yildan boshlab ta'lim dasturi yakunida

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qaroriga  
2-ILOVA

**Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida” 2019-yil 3-dekabrda 967-son qaroriga kiritilayotgan**

**QO'SHIMCHALAR**

1. 4-bandga quyidagi tahrirdagi xatboshi qo'shilsin:

“kengash qarori bilan oliy ta'lim muassasasining tashkiliy tuzilmasiga qo'shimcha yangi lavozim, tarkibiy bo'linmalar va shtat birliklarini joriy etish”.

2. 8-bandga quyidagi tahrirdagi xatboshilar qo'shilsin:

“o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni (bino va inshootlar hamda o'quv-ilmiy laboratoriya jihozlari bundan mustasno) sotishdan tushgan mablag'larni to'lig'icha o'zlarining rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlaydi va sarflaydi;

o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari rivojlantirish jamg'armasiga tushgan barcha mablag'lardan moddiy-texnika bazani mustahkamlashga, o'z

xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag‘batlantirishga, faoliyatni samarali tashkil etish bilan bog‘liq boshqa tadbirlarga sarflash ulushini mustaqil belgilaydi;

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali o‘qituvchi va mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilaydi (qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlardan kam bo‘lmagan miqdorda);

2021-yil 1-yanvardan boshlab o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari ko‘chmas mulkini ijaraga berishdan tushgan mablag‘ning 1 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy bo‘linmalari huzuridagi davlat mulki ijara markazlariga, qolgan qismi esa — elektron savdo maydonchasi operatoriga to‘langan to‘lov chegirilgandan keyin mazkur oliy ta’lim muassasasining rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi;

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan budjet mablag‘larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi”.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*